



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH
INSTITUTI

**“Yangi O‘zbekiston iqtisodiyotini
rivojlantirishning dolzarb masalalari”**

**mavzusida Respublika miqyosidagi
ilmiy-amaliy konferensiya**

I

Namangan shahar, 2022-yil

“Yangi O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning dolzarb masalalari” mavzusida Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari I-to‘plami

To‘plamga 2022 yil 29-30 sentyabr kunlari institutda o‘tkazilgan **“Yangi O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning dolzarb masalalari”** mavzusida Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya ishtirokchilarining I va II sho‘ba ilmiy ma’ruza materiallari kiritilgan.

NamMQI, 29-30 sentyabr, 2022 yil, Namangan shahri

Tahrir hay’ati:

t.f.n., dots.Sh.T.Ergashev, f-m.f.d., dots.M.Dadamirzayev, i.f.d., dots.O.A.Aripov, i.f.n., dots.I.Q.Sirojiddinov, i.f.d., dots.B.J.Mahmudov, i.f.d., dots.N.Sotvoldiyev, i.f.n., dots.M.Yu.Isakov, i.f.n., dots.A.Ya.Yuldashev, i.f.n., dots.R.A.Botirova, i.f.n., dots.X.Talabbayev, PhD.U.T.Fayzullayev, E.S.Jurayev, U.A.Xolmirzayev, Sh.X.Ibrogimov, D.Umurzakov, I.V.Hojiboyeva, N.Nosirova, O.Boyturayev, M.Mahmudov

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining IT-texnologiyalar, telekommunikatsiyalar va innovatsion faoliyatni rivojlantirish masalalari departamentining 2022-yil 30-maydagi 08/8-8-son, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 1-iyundagi 3/19-2/6-221-sonli xatlari hamda institut rektorining 2022 yil 1 iyundagi 126/1-u-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan ilmiy-tadbirlar rejasiga asosan o‘tkazildi.

fayllari. Shunga ko'ra, ijtimoiy-iqtisodiy tizimda jarayonlar, hatto ilgari to'g'ridan-to'g'ri aloqada bo'lmagan tomonlar o'rtasida onlayn muloqotga aylanishi mumkin.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishdagi eng muhim jihat va bir vaqtning o'zida eng murakkab bosqich – bu ishbilarmonlik muhitini soddalashtirish hamda odamlar va biznesning davlat bilan muloqotiga sarflanajak xarajatlarni maksimal qisqartirishdir.

Zamonaviy jamiyatning keyingi rivojlanishini axborot kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi, bu bizga axborot taraqqiyoti nomini olgan ijtimoiy rivojlanishning yangi bosqichini shakllantirish imkonini bildiradi.

Elektron hukumatga doir elementlarni tatbiq etish va raqamli iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash O'zbekistonning yaqin istiqboldagi taraqqiyot rejasidan mustahkam o'rin olgan. Bu, birinchi navbatda, elektron hujjat almashish ulushini yanada oshirish va davlat xizmatlarining muayyan qismini Davlat xizmatlari markazlari orqali bosqichma-bosqich ravishda elektron shaklga o'tkazish vazifalariga tegishlidir. Telekommunikatsiya infratuzilmasi bu jarayonda muhim vazifani bajaradi. Yaqin kelajakda O'zbekistonda ham iqtisodiyotni boshqarishda raqamli texnologiyalaridan foydalanish va ularni barcha tizimlarga kirib borishini ta'minlash kerak bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Коваленко Б.Б. Цифровая трансформация: пути создания конкурентных преимуществ бизнесорганизаций // Наука и бизнес: пути развития. 2017.

2. Рахмонов Лочин Тўхтамишович, ТДИУ таянч докторанти. “Иқтисодийёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 6, ноябрь-декабрь, 2018 йил. Рақамли иқтисодийёт – соҳа ва тармоқларда иқтисодий самарага эришишнинг инновацион усули

KITOBXONLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING O'RNI

PhD Dedaxanova Muazzam Altmishbayevna (Toshkent moliya instituti)

Yangi O'zbekiston taraqqiyotida "Raqamli iqtisodiyot"ning o'rni beqiyos ekanligi bugungi kunda hech kimga sir emas. U nafaqat jamiyat hayotida, balki ta'lim sohasida ham muhim ahamiyatga ega. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi va tatbiq qilinishi sababli kundalik hayotimizda juda ko'plab qulayliklar paydo bo'lmoqda. Bu qulaylik ko'plab rivojlangan mamlakatlarning sivilizatsiyasiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgani ma'lum. Shu o'rinda, raqamli iqtisodiyot tarixiga bir nazar tashlab o'tishimiz lozim. Bu tushuncha "1995-yili Massachusetts universitetida amerikalik olim Nikolas Negroponte tomonidan aniqlab berilgan. U axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini intensiv rivojlanishi ortidan eski iqtisodiyotdan yangi iqtisodiyotga o'tishda, qanday o'zgarishlar ro'y berishi mumkinligini aytib o'tgan. Raqamli iqtisodiyot – bu xo'jalik faoliyatini yuritish bo'lib, bunda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishdagi asosiy omil raqamlar ko'rinshidagi ma'lumotlar bo'lib, katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash va shu qayta ishlash natijasini analiz qilish yordamida har xil turdagi ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, texnologiyalar, qurilmalar, saqlash, mahsulotlarni yetkazib berishda oldingi tizimdan

samaraliroq yechimlar tatbiq qilishdir. Boshqacha aytganda, raqamli iqtisodiyot bu onlayn xizmatlar ko'rsatish, elektron to'lovlar amalga oshirish, internet savdo, kraudfanding va boshqa turdagi sohalarni raqamli kompyuter texnologiyalarini rivojlanishi bilan bog'langan faoliyatdir" [1]. Raqamli iqtisodiyotning maqsad va vazifalaridan boxabar bo'lish, jamiyat hayotidagi o'rnini bilish naqadar zarurat ekanini davr talab qilmoqda. Shu bois uning rivojlanishi yo'lidagi to'siqlarni bartaraf qilish borasida samarali ishlar yo'lga qo'yilgan. Xususan, o'quv maskanlarida, internetda, televideniya, radio, umuman olganda, ommaviy axborot vositalarida ko'rsatma berish, reklamalarda yo'llanma qilish orqali har qanday soha mutaxassisini yuqori saviyada tarbiyalabgina qolmay, butun xalqning dunyoqarashini kengaytirish borasida yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. "Raqamli iqtisodiyot rivojlanishining asosiy elementi sifatida, asosan, elektron tijorat, internet banking, elektron to'lovlar, internet reklama va shu bilan birga, internet o'yinlari ko'riladi" [1]. Masalan, endilikda istagan kitobimizni uydan chiqmagan holda nafaqat elektron, balki bosma shaklda ham xarid qilish imkoniyatiga egamiz. Kompyuter yoki smartfon orqali saytlar yoxud mobil ilovalariga kirib, buyrutma berish yoinki chet tilidagi original variantdagi manbalarni qo'lga kiritish muammo emas. Bu imkoniyatlar samarasini "Yosh kitobxon" tanlovi misolida ham ko'rishimiz mumkin. Yoshlar o'rtasida kitobga bo'lgan qizishning ortishi natijasida nafaqat bosma, balki elektron shakldagi kitoblarning ko'payishi, tarjimalarning takomillashuvi va bu borada xizmat qiluvchi saytlar, telegram kanallarning faollashuvi kun sayin ortib bormoqda. Shu bois bu tanlovni har qanday o'quv maskanida: xoh u chekka hududda joylashgan bo'lsin, xoh markazda – o'zgacha zavq, ishtiyoq bilan o'tkazish an'anaga aylangan. Zero, kitob bilan ishlashni bilgan, o'z tilida aniq, ravon gapira olgani holda xorijiy tillarni ham o'zlashtira bilgan yoshlardan yuqori saviyadagi ilmiy salohiyatga ega kadrlar, buyuk tarjimonlar chiqishi tabiiy. O'zbekiston yuksalishi uchun ana shunday bilimli, yangicha innovatsion g'oyalar tashabbuskori kerak. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlarid ek: "Kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish – buyuk maqsadlarimizga erishishning muhim kafolatidir" [2; B. 74]. Darhaqiqat, ta'lim sifatini oshirish negizida xorijiy tajribalarni yurtimizga tatbiq etuvchi millatparvar olimlar, pedagoglar, vatanparvar fidoiy insonlar bor ekan, yurtimiz iqtisodiy barqarorlikka erishishi, rivojlangan mamlakatlar qatoridan munosib joy egallashi shubhasiz. Shuning uchun oliygohlarning o'zga til guruhlarida o'zbek tili fani o'qitilishi zamirida ham chuqur mohiyat bor. Ta'kidlash kerakki, ushbu fanni o'qitish metodikasi raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari bilan chambarchas bog'liq holda yo'lga qo'yilishini zamon talab qilmoqda. Qolaversa, birinchidan, bu fan davlat tiliga hurmat, ehtirom uyg'otish, vatanparvarlik ruhida kamol toptirish kafolatini beradi. Ikkinchidan, O'zbekistonda yashagan inson qaysi millat vakili bo'lmasin, ayniqsa, oliy ma'lumotga ega bo'lsa, o'zbek tilida aniq, ravon gapira olishi, notiqlik mahoratidan xabardor bo'lishi shartligini rivojlangan mamlakatlarning davlat tili mavqiyi misolida ko'rishimiz mumkin. Uchinchidan, o'zbek tili fanida ilmiy salohiyatni oshirish, kitob bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish masalasiga bejiz e'tibor qaratilmagan. Jumladan "Kitob mutolaasi", "Adabiyot – ma'naviyatni yuksaltiruvchi manba" mavzularida kitob bilan ishlash malakasi ustida ishlansa, "Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi" mavzusida kerakli

ulardan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan yangi aloqalar va munosabatlar hayotimizga jadal kirib bormoqda. Shu bois O‘zbekiston Respublikasida davlat va jamiyat taraqqiyotini yanada jadallashtirish maqsadida keyingi yillarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha bir qancha farmon va qarorlar qabul qilindi. Jumladan, 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha qabul qilingan Harakatlar strategiyasi qulay AKT infratuzilmasini yaratish, jumladan, mobil aloqa va raqamli televideniye rivojlantirish, dasturiy ta‘minotni ishlab chiqish, takomillashtirish va “elektron hukumat” tizimini rivojlantirish, shuningdek, investitsiya muhitini takomillashtirish va mamlakat iqtisodiyotining tarmoqlari va hududlariga xorijiy investitsiyalarni faol jalb etishni o‘z ichiga oladi. O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyotga o‘tish zarurati munosabati bilan Prezident Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga Murojaatnomasida “2020-yil – Ilm-ma‘rifat va raqamli iqtisodiyot yili” deb e‘lon qilgan.

Ta‘kidlash joizki, insoniyat taraqqiyotining hozirgi va yaqin istiqbolida iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimining sifat jihatidan rivojlantirish raqamli texnologiyalarni keng joriy etish bilan bevosita bog‘liq bo‘lib bormoqda. Bu esa raqamli iqtisodiyot rivojlanishi va raqamli texnologiyalarning qamrov darajasiga bog‘liq.

Raqamli iqtisodiyotda zamonaviy ilmiy yondashuvlar va innovatsiyalar muhim hamda ustuvor ahamiyatga ega bo‘ladi. Bunda ilmiy sig‘imkorlik yuqori bo‘lgan tarmoqlar ravnaq topadi. Raqamli iqtisodiyot rivojlangan davlatlarda YaIM hajmi ham, YaIMning aholi son boshiga ulushi ham yuqoridir.

Raqamli iqtisodiyot global xarakterga ega bo‘lganligi sababli, axborotlashtirish va raqamlashtirish bo‘yicha har qanday davlat loyihasi yagona kodlash tizimi, iqtisodiyot va boshqaruvga oid ma‘lumotlarni identifikatsiyalash asosida puxta va ilmiy o‘rganilishi muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хуррамова Н.Ш. (2020). Цифровизация как фактор формирования экономических технологий. *Приоритеты развития цифровой экономики в Узбекистане*. Сборник научных статей и докладов. Т.:ТГЭУ.
2. Sirojiddinov, I. Q., & Xodjibaeva, I. V. (2021). Factors affecting regional investment potential. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(5), 404-409.
3. Xodjibaeva, I. V., & Xasanboev, O. X. (2019). Global problems in modern conditions. In *ПЕРСПЕКТИВНЫЕ ОБЛАСТИ РАЗВИТИЯ НАУКИ И ТЕХНОЛОГИЙ* (pp. 18-19).

ОЗИҚ-ОВҚАТ САНОАТИ КОРХОНАЛАРИНИ БОШҚАРИШДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ЖОРИЙ ЭТИШ МАСАЛАЛАРИ

*докторант Турзунов Мухриддин Мўйдинжон ўгли (Фаргона политехника
институтини)*

Мамлакат иқтисодиётни ҳар томонлама жадал ривожланиши учун аввало ҳудудларда озиқ-овқат маҳсулотларини ишлаб чиқаришга ихтисослаштирилган корхоналарини кўпроқ ташкил этиш, мавжуд қувватлардан тўлақонли

MUNDARIJA

KIRISH	3
O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI	5
ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ	5
<i>доктор экономических наук, профессор А.Абдувохидов, (ТГЭУ)</i>	
ESSENTIAL ASPECTS OF DIGITAL ECONOMY IN INCREASING OF THE COCOON PROCESSING ENTERPRISES	7
<i>Senior teacher, PhD Khojimatov Ravshanbek Rasuljonovich (Namangan Institute of Engineering and Technology)</i>	
ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ	9
<i>катта ўқитувчи Ахунова Маърифат Хакимовна (Фарғона политехника институти)</i>	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH VA UNING SAMARADORLIGI	13
<i>i.f.n., dotsent Xalikova Lola Nazarovna (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti)</i>	
ЎЗБЕКИСТОНДА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТГА ТРАНСФОРМАЦИЯ ЖАРАЁНИНИНГ АЙРИМ МЕХАНИЗМЛАРИ	16
<i>PhD. Аиууров Зуфар Абдуллоевич (Ўзбекистон Республикаси Давлат активларини бошқариш агентлиги ҳузуридаги Хусусийлаштириш ва давлат активларини бошқариш муаммоларини тадқиқ этиш маркази)</i>	
ЎЗБЕКИСТОНДА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТГА ТРАНСФОРМАЦИЯ ЖАРАЁНИНИНГ АЙРИМ МЕХАНИЗМЛАРИ	18
<i>докторант Мўйдинова Гулнозахон Қаҳрамон қизи, талаба Абдуллаев Абдурахимжон Абдурашид ўғли</i>	
DIGITALIZATION: PRIORITIES AND PROSPECTS	21
<i>PhD, Professor of the Russian Academy of Natural Sciences Kurpayanidi Konstantin Ivanovich (Fergana Polytechnic Institute)</i>	
РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТДА КРЕАТИВ ТУРИЗМ	22
<i>Мустақил тадқиқотчи Рузибаева Наргиза Хакимовна (Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти)</i>	
KIЧIK BIZNESNI VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI O‘RNI VA ANAMIYATI	24
<i>o‘qituvchi Bo‘stonova Nilufar Abdusamatovna (Andijon mashinasozlik instituti)</i>	
RAQAMLI TA‘LIM RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA	27
<i>PhD, v.b.dotsent Umarova Fotima Abduraximovna (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti)</i>	
RAQAMLI IQTISODIYOTGA O‘TISH SHAROITIDA IQTISODIY JARAYONLARNI BOSHQARISH	28
<i>o‘qituvchi Raxmatullayeva Feruza Azimovna (Andijon qurilish instituti)</i>	
KITOVXONLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING O‘RNI	30
<i>PhD Dedaxanova Muazzam Altmishbayevna (Toshkent moliya instituti)</i>	
MAMLAKAT RIVOJLANISHIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING ANAMIYATI	32
<i>katta o‘qituvchi Xodjiboyeva Iqbola Valiyevna, talaba Maxmudov Muhtorjon Abdumalik o‘g‘li (Namangan muhandislik-qurilish instituti)</i>	
ОЗИҚ-ОВҚАТ САНОАТИ КОРХОНАЛАРИНИ БОШҚАРИШДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ЖОРИЙ ЭТИШ МАСАЛАЛАРИ	33
<i>докторант Турғунов Мухриддин Мўйдинжон ўғли (Фарғона политехника институти)</i>	
БОШҚАРУВ ҲИСОБИНИ МАСЪУЛИЯТ МАРКАЗЛАРИ БЎЙИЧА ТАШКИЛ ЭТИШ ВА ЮРИТИШ	36
<i>PhD Собиров Отабек Олимжонович (Наманган муҳандислик-технология институти)</i>	
RAQAMLI TA‘LIM RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA	38
<i>PhD, v.b.dotsent Umarova Zaxro Abduraxim qizi (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti)</i>	